



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

¹G.A.Xodjaeva

²G.O.Jiemuratova

¹*QDUning Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası professori g.i.k.,*
²*Qoraqalpog'iston Respublikası pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatishmilliy*
markazi katta o'qituvchisi

GEOGRAFIYA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Umumiy o'rta ta'lim berish maktablarida, ta'lim jarayonida zamonaviy islohatlarning joriy etilishi, har bir o'qish predmetining o'rganuvchi tomonidan natijali o'zlashtirishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy innovatsiyalar, interfaol o'qitish qurollari va kompetensiyaviy munosabat asosida informatsiyon texnologiya qurollaridan foydalanish, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, o'quvchilarning intellektual darajasiga bog'liq masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunning ahamiyatli talablardan biri ortiqcha ma'naviy va fizik kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir.

Milliy ta'lim dasturining amalda joriy etilishi asosida geografiya fanini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usillarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar ko'rsatilgan:

[Zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining zich integratsiyalarini ta'minlash, bu bo'yicha pedogog kadrlarning kaspiy mahoratini rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, geografiya fani bo'yicha elektron darsliklarni mobil aloqa qurollariga yuklab olish va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida ta'lim metodik komplekslar (innovatsion darsliklar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovalari) haqidagi joylashtirish sistemasini yaratish; o'quvchilarni qo'shimcha qiziqarli yangiliklardan matn, audio, video shaklida xabardor qilib turish, zamonaviy informatsiyon-kommunikatsiyaviy texnologiyalar asosida masofadan ta'lim qurollarini tashkil etish; masofadan foydalanish imkonini beruvchi elektron kitobxona tizimiga geografiya fani bo'yicha ishlab chiqilgan ta'lim-metodik komplekslarini, elektron ta'lim resurslarini



joylashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish, ta'lim jarayonida elektron resurslar hissasini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron adabiyotlar yaratish, ularni mobil aloqa qurilmalariga yuklab olish maqsadida QR-kod bilan elektron resurslar haqidagi xabarlarini joylashtirish tizimini yaratish va undan foydalanishni yo'lga qo'yish]1.

Bu ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirishda bilim beruvchida informatsion texnologiyalar bo'yicha bilimi yetarli bo'lishi kerak va uzluksiz o'z ustida ishlashni talab etadi. Sababi darsliklarni samarali o'qitishda informatsion texnologiyalarning hissasi juda katta. Shuning uchun ham dastlab pedogog kadrlarning o'zlari bu imkoniyatlarni yuqori darajada o'zlashtirishi va foydalana olishi lozim. Fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan informatsion texnologiyalar texnik va an'anaviy qurollarni yaratish va ishlov berish texnologiyalari, shaxsiy elektron ta'lim resurslarini yaratish, fanlar bo'yicha elektron o'qish kurslarini rejalashtirish, o'quvchilar bilimini baholash tizimlari, Internet texnologiyalari, masofadan o'qitish texnologiyalari va unitashkillashtirish usullaridan foydalanish, video konferensiya, on-line ochiq kurslar (Coursera, edX, Khan Academy, MIT Open Course Ware) nitashkillashtirish kabi bilimlarni talab etadi.[Bu bilimlarni rivojlantirish orqali umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi har bir o'qituvchi o'quvchilarga dars davomida ilmiy bilimlarni berish bilan birga ularda keng dunyoqarashni paydo etish, o'ylash va mustaqil fikrlash ko'nikmalari orqali bilimga bo'lgan qiziquvchanligini rivojlantirib boradi]2. Bunda birinchi navbatda o'qituvchining o'zidan ko'p mas'uliyat talab etiladi. Sababi informatsion texnologiyalardan foydalanish mahoratini orttirish uchun Geografiya fani o'qituvchilari har xil saytlar bilan programmalarining imkoniyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.[Bu resurslar oddiy usullarga qaraganda multimediali, o'quvchida bilim olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadigan, topshiriqlar bajarish, izlanish davomida yordamchi qurol bo'la oladigan platformalar bo'lib hisoblanadi]3.

Bunday platformalarning ichida o'quvchining olgan bilimni baholashda qo'llaniladigan platformalardan o'qituvchilar keng doirada foydalanmoqda. Masalan, shunday platformalardan biri LearningApps platformasi haqida aytadigan bo'lsak, platforma yordamida o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashda foydalana olsa bo'ladigan interaktiv, multimediyali, elektron trenajyor mashqlar yarata oladi. Yana bir afzalliklaridan biri platforma har bir fan o'qituvchisi uchun qulay. Bu degani barcha fan o'qituvchilari o'z fanlaridan har xil shakldagi mashqlar yarata olish imkoniyati bor. Shuningdek yaratgan mashqlarining havolalarini o'qituvchilar shu vaqtning o'zida telegram gruppalari orqali yoki kundalik.com platformasi orqali uyg'avazifabo'limida havolani joylashtiribo'z o'quvchilariga taqdim etadi. Shuning bilan birga bu o'qituvchilarimiz bugungi kunda o'z pedogogik faoliyatida keng ko'lamda foydalanayotganligini, darslarning yana ham qiziqarli va samarali bo'layotganligi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziquvchiligning ortib borayotganligi bilan ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib LearningApps.org platformasi geografiya darslarini o'qitish jarayonida o'quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Dars davomida olgan bilimlarini tizimlashtiradi;



Xulosani tez qabul qilishga o'rgatadi;
Topshiriqni bir necha marta bajarish orqali yaxshi natijaga erishadi;
Umumiy ta'limga bo'lgan motivatsiya paydo qiladi;
Qayta munosabat o'rnatadi, o'z-o'zini baholaydi;
Mustaqil bilim olish ko'nikmasi shakllanadi;
Mustaqil ishni shaxsiy kompyuterlar, planshet, uyali telefon yordamida tashkillashtira oladi;

Darsda interaktiv texnologiyalardan samarali foydalanish mas'uliyat bilan ijodkor shaxsni shakllantirishga olib keladi.

Biz bundan boshqa geografiya darslarini sifatli tashkil etish uchun amaliy dasturlar va qurollar (Google Earth Win, Bandicam, Ispring, Eclipse Crossword Krossvordli topishmoqlar)dan foydalanish orqali ham darslarning samaradorligini oshirish imkoniyatlariiz bor. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanish uchun o'qituvchidan ko'p o'z ustida ishlashni talab etadi.Xulosa qilib aytadigan bo'lsak geografiya darslarida IKTdan foydalangan holda darslarni tashkil qilish orqali o'quvchilarni:

- O'rganilayotgan o'quv ma'lumotlarini animatsiya, audio, video shaklida taqdim qilish orqali bilimni orttira olish;

-Bilim olish jarayonida faqatgina ma'lumotga ega bo'luvchi emas, to'liq qatnashuvchiga aylantirish;

- Berilgan ma'lumotlar bilan mustaqil ishlash imkoniyatlarini yaratish;

-Ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni matn yoki o'quv topshiriqlari usulida monitoring qilish va baholash imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi 11.05.2022-yildagi PF-134-son Farmoni, (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y., 6/22/134/0407-son)

2. G.Xodjaeva,G.Jiemuratova, «Ilim hám jámiyet» ilmiy metodik jurnal 2020-y.2 sonı 66-bet

3. K.Turmanov, “Science of informatics and information technologies specific principles of teaching” Educational Research in Universal Sciences, VOLUME 1 ISSUE 3/2022, Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556, 26-28 p